

2-1-2019

DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IS AN IMPORTANT FACTOR OF ECONOMIC DEVELOPMENT AND POPULATION'S WELDAFE OF OUR COUNTRY

U. Mukhtorova
Tashkent Financial institute

B. Khayitboyev
Tashkent Financial institute

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance>

Recommended Citation

Mukhtorova, U. and Khayitboyev, B. (2019) "DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IS AN IMPORTANT FACTOR OF ECONOMIC DEVELOPMENT AND POPULATION'S WELDAFE OF OUR COUNTRY," *International Finance and Accounting*: Vol. 2018 : Iss. 1 , Article 33.
Available at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2018/iss1/33>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in International Finance and Accounting by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact brownman91@mail.ru.

**Muxtorova U.K. – TMI,
katta o'qituvchi
Xayitboyev B.X. – TMI,
talaba**

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK RIVOJI - MAMLAKATIMIZ IQTISODIY TARAQQIYOTI VA AHOLI FAROVONLIGINING MUHIM OMILIDIR

Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyoti va ichki bozorimizda raqobatdosh va sifatli mahsulotlar bilan to'ldirishda, aholini ish bilan ta'minlash va shu asnoda ularning munosib daromad topishi, farovonligining oshib borishiga erishishda, jamiyatimiz ijtimoiy-siyosiy tayanchi va poydevori bo'lgan mulkdorlar sinfining, ya'ni o'rta sinfning shakllanishi va mustahkamlanishi haqida so'z yuritilib, uning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tadbirkor, tadbirkorlik, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, tadbirkorlik faoliyati, mulkdor, daromad, rentabellik, ishlab chiqarish.

В этой статье обсуждается, как малый бизнес и частное предпринимательство можно использовать для того, чтобы заполнить экономическое развитие страны и дополнить внутренний рынок конкурентоспособной и качественной продукцией, обеспечить население рабочими местами и следовательно, заработать достойный доход и увеличить их благосостояние, класс собственников, т.е. формирование и укрепление среднего класса, и его макроэкономические показатели широко освещаются.

Ключевые слова: бизнес, предпринимательство, малый бизнес, частное предпринимательство, предпринимательство, собственность, доход, рентабельность, производство.

This article discusses how small business and private entrepreneurship can be used to fill the country's economic development and complement the domestic market with competitive and high-quality products, provide the population with jobs and, consequently, earn a decent income and increase their well-being, a class of owners, the formation and strengthening of the middle class, and its macroeconomic indicators are widely covered.

Keywords: business, entrepreneurship, small business, private entrepreneurship, entrepreneurship activity, property, income, profitability, production.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik davlat va jamiyatimiz rivojida alohida o'rin egallaydi. Bugungi kunda biz bu sohani rivojlantirmasdan turib iqtisodiyotimizning kelajagini ta'minlay olmaymiz. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi ichki bozorimizda raqobatdosh va sifatli mahsulotlar bilan to'ldirishda, aholini ish bilan ta'minlash va shu asnoda ularning munosib daromad topishi, farovonligining oshib borishiga erishishda eng asosiy omillardan biri

hisoblanib, jamiyatimiz ijtimoiy-siyosiy tayanchi va poydevori bo'lgan mulkdorlar sinfining, ya'ni o'rta sinfning shakllanishi va mustahkamlanishini ta'minlaydi. Bu soha hozirda jamiyatimizdagi ijtimoiy va siyosiy barqarorlikning kafolati va tayanchiga, yurtimizni taraqqiyot yo'lidan faol harakatlantiradigan kuchga aylanib bormoqda. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalar joriy etilishini rag'batlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini kengaytirish masalalarini tubdan hal etish, ularning eksport salohiyatini oshirishga, eksportga mo'ljallangan mahsulotini jahon va mintaqaviy bozorlarga olib chiqishga ko'maklashish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini axborot bilan ta'minlash, shuningdek, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish masalalarida ularga konsultativ ko'mak berish tizimini yanada rivojlantirish maqsad qilib belgilangan. Albatta bu tadbirlarning aholi farovonligi bilan bog'liq iqtisodiy - ijtimoiy muammolarni hal etishdagi ahamiyati kattadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovich ta'kidlaganlaridek: “Bizning bosh vazifamiz – tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratishni ta'minlashdir. Biznes bilan shug'illanayotgan har kishida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga astoydil ishonch bo'lishi shart. Odamlar biznes bilan shug'ullanishdan manfaatdor bo'lishi zarur. Tadbirkor va xalq boy bo'lsa – mamlakat ham boy bo'ladi”. [1]


Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulkning huquqlarini himoya qilish va uning istiqbolli rolini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish: kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, nazorat va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning noqonuniy aralshuvini qat'iy oldini olish; tadbirkorlik subyektlarining muxandislik tarmoqlariga ulanish mexanizmlarini takomillashtirish va soddalashtirish; mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni tartibga solishga davlat ishtirokini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarning 2017-2021 yillarga mo'ljallangan “Harakatlar strategiyasi” da qat'iy belgilab qo'yilganligi, bizga kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning bugungi holatini tahlil qilish va “Harakatlar strategiyasi” doirasida amalga oshirilayotgan ishlarni o'rganish, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish uchun takliflar berish imkonini beradi. [2]

Xususan, respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat'iy oldini olish Harakatlar strategiyasining asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Ayni paytda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida yaratilayotgan imtiyoz va imkoniyatlar ushbu yo'nalishda faoliyat yurituvchi subyektlar sonining keskin oshishiga sabab bo'lmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, 2016 yil davomida jami ro'yxatga olingan kichik

biznes korxonalarining soni 16 ming 208 taga etib, ro‘yxatga olingan kichik biznes korxonalarining 91,3 foizi bugun samarali faoliyat ko‘rsatib kelmoqda


Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan xususiy mulk va tadbirkorlikni rivojlantirish borasidagi vazifalar, strategik yo‘nalishlarning barchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli Harakatlar strategiyasida xususiy mulk va tadbirkorlik rivojiga oid belgilangan vazifalar, ustuvor yo‘nalishlar va g‘oyalarning ahamiyati yuqori bo‘lib, ularning amalga oshirilishi esa ushbu sohalar rivojlanishi va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga katta hissa qo‘shadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘illanayotgan korxonalar soni, yaratilayotgan ish o‘rinlari oshib borishi bilan birga, ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan maxsulotlar ham, YaIM dagi ulushi ham ortib bormoqda. Xususan, 2000 yilda yalpi ichki mahsulotning qariyb 31 foizi iqtisodiyotning faol rivojlanib borayotgan ushbu sektori ulushiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2005 yilda bu ko‘rsatkich 38,2 foizni, 2010 yil 52,5 foizni, 2015 yil 56,5 foizni, 2016 yil 56,9 foizni tashkil etib, 2000 yilga nisbatan 25,9 birlikka ortdi.



1-diagramma. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi [5]

Taqqoslash uchun bir qator chet el davlatlarida kichik biznesning YaIMdagi ulushini olib qaraydigan bo‘lsak, Fransiyada bu ko‘rsatkich 62 foizni, Italiyada 60 foizni, Yaponiyada 55 foizni, Germaniyada 54 foizni, Buyuk Britaniyada 53 foizni, AQShda 52 foizni, Qozog‘istonda 25,6 foizni, Rossiyada 20,0 foizni tashkil etadi.



1-rasm. Dunyoning turli davlatlarida kichik biznesning YaIMdagi ulushi [6]

Bunda turli davlatlarda subyektlarning kichik biznes sohasiga taalluqliligi mezonlariga ham e'tibor berish lozim. Masalan, AQShda xodimlar soni 100 kishigacha hamda yillik aylanmasi hajmi 3 mln.dan 12 mln. AQSh dollarigacha bo'lgan subyektlar kichik biznes subyektlari hisoblanadi. Xodimlar soni 100 dan 500 kishigacha bo'lgan subyektlar esa o'rta biznes subyektlari deb yuritiladi. Shuningdek, Rossiyada kichik biznes sub'ektlariga xodimlar soni 100 kishigacha hamda yillik tushum hajmi 400 mln. rublgacha bo'lgan subyektlar taalluqli bo'ladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushining viloyatlar kesimida o'sishini 1-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin.

1-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning viloyatlar kesimi bo'yicha yalpi ichki mahsulotdagi ulushi [7]

Viloyalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi (foizda)				2000-2016 yillarda o'zgarish
	2000 yil	2005 yil	2010 yil	2016 yil	
Yuqori darajada					
Namangan	33,4	45,2	76,0	80,3	46,9
Jizzax	37,1	58,3	77,3	80,3	43,2
Samarqand	44,3	49,9	73,6	78,0	33,7
Surxondaryo	39,1	42,8	71,7	75,3	36,2
Xorazm	34,2	47,1	71,8	74,2	40,0
O'rta darajada					
Sirdaryo	38,9	59,8	77,4	68,7	29,8
Buxoro	33,0	40,7	64,1	67,9	34,9

Andijon	32,9	35,8	54,7	66,0	33,1
Farg’ona	32,0	40,8	59,5	63,4	31,4
Toshkent sh.	41,5	46,4	49,9	58,9	17,4
Toshkent v.	34,0	32,3	54,7	57,1	23,1
Qoraqalpog’iston Respublikasi	26,9	45,1	63,6	57,0	30,1
Qashqadaryo	25,8	34,9	55,0	51,7	25,9
Past darajada					
Navoiy	21,5	18,5	34,4	37,6	16,1

Jadval ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki, 2016 yilda respublikamiz hududlari bo’yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi Namangan va Jizzax viloyatlarida yuqori darajaga yetib, 80,3 foizni tashkil etgan. Shuningdek, Samarqand viloyatida bu ko’rsatkich 78,0 foiz, Surxondaryo viloyatida 75,3 foiz va Xorazm viloyatida 74,2 foizni tashkil etgan. Sirdaryo, Buxoro, Andijon, Farg’ona, Toshkent va Qashqadaryo viloyatlarida, Toshkent shahri va Qoraqalpog’iston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 50-70 foizlar oralig’ida bo’lib, o’rta darajani qayd etgan. Shu bilan birga, past darajada qolayotgan Navoiy viloyatida bu ko’rsatkich 37,6 foizni tashkil etgan.

Agar oldingi yillarda bunday o’sishning asosi sifatida kichik tadbirkorlikni rag’batlantirish bo’yicha amalga oshirilgan keng qamrovli chora-tadbirlar, xususan, erkin faoliyat uchun kafolatlarning ta’minlanganligi, ularni davlat tomonidan ro’yxatga olish tartibining ixchamlashtirilishi, kredit mablag’laridan foydalanish doirasining kengayishi, qulay makroiqtisodiy muhitning shakllanganligi, milliy valyuta kursining barqarorligi kabi omillar hizmat qilgan bo’lsa, bugungi kunda o’sishga asosan birja savdolarida tovar-moddiy resurslarni xarid qilish va ta’minot sharoitlarining yaxshilanishi, yalpi to’lov o’rniga yagona soliq to’lovining kiritilishi natijasida tejalgan moliyaviy resurslarning ishlab chiqarishga yo’naltirilishi hisobiga erishildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining kengayishi iqtisodiyotning boshqa soha va tarmoqlari ishlab chiqarish hajmidagi salmog’ining oshishi orqali ham namoyon bo’ladi. Xususan, mazkur sohaning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 2005 yildagi 10,0 foizdan 2016 yilda 45,3 foizga, qishloq xo’jaligida tegishli ravishda 85,7 foizdan 98,2 foizga, savdoda 43,7 foizdan 89,6 foizga, asosiy kaitalga investitsiyalar hajmida 24 foizdan 39,1 foizga, eksport hajmida 6 foizdan 26,5 foizga, import hajmida esa 33,7 foizdan 46,7 foizga qadar oshdi.

O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlarining iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushining o‘shish sur‘ati (foizda) [8]

Ko‘rsarkichlar	2005 yil	2010 yil	2015 yil	2016 yil
Sanoat	10,0	19,6	40,6	45,3
Qishloq xo‘jaligi	85,7	97,9	98,1	98,2
Investitsiya	24,0	30,8	35,8	39,1
Qurilish	50,9	52,3	66,7	67,8
Savdo	43,7	50,5	87,1	89,6
Eksport	6,0	13,6	27,0	26,5
Import	33,7	36,6	44,5	46,7

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o‘rni, aholi farovonligini oshirishdagi imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi xulosa va takliflarni keltirish mumkin:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining samarali faoliyatiga halaqit berayotgan, to‘sqinlik qilayotgan yoki qilishi mumkin bo‘lgan muammolarni muntazam ravishda o‘rganib borish va o‘z vaqtida bartaraf etish chora-tadbirlarini ko‘rish;

- hududlardagi bo‘sh yoki samarali foydalanilmayotgan bino va inshootlar to‘g‘risidagi aniq ma‘lumotlarning qisqa muddatlarda olinishi hamda ularning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilishi jarayonlarini samara tashkil etish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati uchun yanada qulay muhit yaratish borasida har bir hududdagi o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash va ulardan kelib chiqqan holda mavjud barcha imkoniyatlarni safarbar eish;

- hududlardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish yo‘lidagi har qanday byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish;

- hududlardagi kichik biznes subyektlarining energiya, gaz, suv va kanalizatsiya, issiqlik ta‘minoti va boshqa shu kabi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishi jarayonlariga e‘tibor qaratish hamda bu boradagi ilg‘or tajribalarni qo‘llash;

- hududlarda faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining faoliyat yo‘nalishlari jihatidan tarkibini takomillashtirish chora-tadbirlarini qo‘llash, xususan, sanoat sohasida, yuqori texnologiyalarni talab etadigan zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarini tashkil etishda ilg‘or ilm-fan yutuqlariga asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirishning turli yo‘l va choralarini izlab topish;

- hududlardagi eksportga mahsulot chiqaruvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga aniq va ta'sirchan yordam ko'rsatish orqali ularning tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi ishtirokini kengaytirish;

Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlab, ularning ichki va tashqi bozorda raqobatlasha oladigan, sifatli mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni izchil yo'lga qo'ya oladigan mustahkam iqtisodiy sohaga aylanishini ta'minlash lozim.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining taraqqiy etishini ta'minlaydi. Aholi bandligini ta'minlashdagi mazkur sohaning ahamiyati soha uchun yanada e'tiborni kuchaytirish lozimligini ko'rsatadi. Demak, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida tarkibiy o'zgarishlar, imkoniyat va imtiyozlarni muntazam amalga oshirish har jihatdan mamlakat iqtisodiyoti rivojiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan uchrashuvdagi nutqi. Toshkent shahri, 2016-yil 24-noyabr.

2. “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, T.: 2017 yil, 7 fevral.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori. Toshkent shahri. 2017 yil, 1 fevral.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiylashtirilgan korxonalar bilan ishlash samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. Toshkent shahri. 2017 yil, 18 aprel.

5. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. www.stat.uz

6. Usarova F.X., Xayitboyev Sh.X. “Kim edigu kim bo'ldik” O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti asarlari asosida tayyorlangan o'quv-uslubiy qo'llanma. –T: Jahon iqtisodiyoti va Diplomatiya Universiteti, 2016.

7. Dr. Jay A. Dewhurst “Бизнесга кириш ва бизнесни режалаштириш” 1-нашр 2014 йил. bookboon.com. ISBN-978-87-403-0758-0